

## XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “KUZA...” QISSASIDA YOZUVCHI USLUBIGA XOS XUSUSIYATLAR

Xajikurbanova Nilufar

Urganch davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10546980>

**Annotatsiya.** Xurshid Do‘stmuhhammadning “Kuza...” qissasi orqali yozuvchi asarlaridagi noan’anaviyliklar, zamonaviy modern adabiyotining ta’siri ko‘rsatib o’tilgan .

**Kalit so‘zlar:** Modernizm, kuzatuv, modern adabiyot, “Kuza...” qissasi, noan’anaviylik, inson ruhiyati, kuzatuvchi, kuzatiluvchi.

### CHARACTERISTICS OF KHURSHID DOSTMUHAMMAD'S WRITING STYLE IN THE SHORT STORY "KUZA..."

**Abstract.** Khurshid Dostmuhammad's short story "Kuza..." shows the unconventionality of the writer's works and the influence of contemporary modern literature.

**Key words:** Modernism, observation, modern literature, "Kuza..." story, unconventionality, human psyche, observer, observed.

### ХАРАКТЕРИСТИКА СТИЛЯ ПИСЬМА ХУРШИДА ДОСТМУХАММЕДА В РАССКАЗЕ «КУЗА...»

**Аннотация.** Через рассказ Хуриида Достмухаммеда «Куза...» показаны нестандартность в творчестве писателя и влияние современной современной литературы.

**Ключевые слова:** Модернизм, наблюдение, современная литература, повесть «Куза...», нестандартность, человеческая психика, наблюдатель, наблюдаемый.

Istiqlol davri adabiyotida insonning ichki olamini badiiy talqin qilish, turli xil ramzlar, majoziy talqinlar yetakchilik qiladi. Asarda qahramonlarning ruhiyati asosiy e’tibor markazida turadi. Hozirgi o‘zbek adabiyoti bugungi kunda jahon adabiyotida bo‘layotgan shiddatli o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda taraqqiyot etmoqda. Shu jumladan, modernizm, postmodernizm, realizm kabi yo‘nalishlar badiiy adabiyotda o‘z aksini topmoqda. “Keyingi yillar she’riyati va nasrda ham modernizm adabiy oqimining o‘ziga xos tarzda ta’sirini kuzatamiz. An’analar bilan bir qatorda, noan’anaviy asarlarning shakllanishida va yaratilishida bu adabiy oqimning sezilarli ta’siri mavjud”<sup>1</sup> XX asrdan buyon jahon san’ati va adabiyotida qo’llanib kelinayotgan modernizm bugungi kunda o‘zbek adabiyotining dolzarb mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Hozirgi adabiy jarayonda modernistik yo‘nalishda yozilgan asarlarni tushunish kitobxonadan sinchkovlik va o‘tkir zehn talab qiladi. H.Boltaboyev zamonaviy modern adabiyoti haqida quyidagicha fikr bildirgan : “Hozirgi adabiy davralarda urf bo‘lgan “modern” so‘zining adabiy mohiyati haqida so‘z yuritganda bizning she’riyatga G‘arbdan yuqqan “epidemiya” debgina qarash nafaqat mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yish, balki o‘zbek she’rining bugungi mushohada tabiatni va yangi shakllar ilinjidagi izlanishlarini imkon etish hamdir”.<sup>2</sup> Adabiyotimizda nasrda Xurshid Do‘stmuhhammad, Nazar Eshonqul, Erkin A’zam,

<sup>1</sup>A.Nosirov.Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Samarqand.2014.19-bet

<sup>2</sup>Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari : yangilangan an’analar va postmodernism. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2006. 238-bet.

Isajon Sulton ; nazmda esa Bahrom Ro‘zimuhammad, Aziz Said, Shermurod Subhon kabi adiblar modern yo‘nalishida ijod qilganlar. Yangi davr adabiyotidagi asarlarda asosiy e’tibor qahramonlarning ruhiyati, ichki kechimmalari, shaxsiyatiga qaratiladi. ‘Modern yo‘nalishidagi asar abstrakt rasmlarga o‘xshab, qanday tushunsang shunday angla deb, duch kelgan voqeani hikoya qilish emas, balki ular ma’lum bir konsepsiyaga ega bo‘lib, ma’lum maqsad sari yo‘naltiriladi. Bu narsa qahramon orqali amalga oshiriladi. Modern yo‘nalishidagi asar qahramonlari esa, o‘z o‘y-xayollari ong oqimi misol miyada yo‘nalgan fikrlarda o‘zi yashayotgan hayotni teran badiiy talqin va tahlil qilib, olam muammosini anglashimizga yordam beradi’.<sup>3</sup> O‘zbek nasrchiligining yetuk vakillaridan biri Xurshid Do‘stmuhammad o‘zbek adabiyotidagi modern yozuvchilardan biridir. Xurshid Do‘stmuhammad asarlaridagi badiiyat G‘arb va Sharq an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan. Uning ko‘philik asarlarida noan’anaviy, yangicha uslublar ko‘zga tashlanadi. Barcha janrdagi asarlari kabi qissa janridagi asarida ham bu holatni ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda qissa janri har vaqtdagidan ham ildam rivojlanmoqda.

Unda zamonaviylik chuqurlashib, rang-baranglik ortmoqda.

Xurshid Do‘stmuhammadning “Kuza...” qissasini olaylik. “Kuza...” qissasi o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos betakror tasvir usuliga ega asarlardan biridir. Qissada yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi asar sujetiga singdirilgan. Voqelikka va inson dunyosiga, uning ruhiy olamiga o‘ziga xos uslubda yondashilgan. Qahramonlar qalbida ro‘y berayotgan jarayonlar muallif diqqat markazida turadi. Asar shakl jihatdan mukammal bo‘lsa-da, uning mazmuni shunchalar chuqur berkitilganki, bir o‘qiganda mazmunni anglab olish qiyin bo‘lib qoladi. Asarning boshlanish qismida Umid va uning do‘satlari, ustozining kasalligi haqida gapirilayotgandan paytda birdaniga Umidning o‘y-xayollari ichidagi voqealar davom etib ketadi. Xayolotidagi kotiba qiz, opasining arazlashlari haqidagi voqealar o‘zgacha sujet uyuştirib, g‘alizlik tug‘dirgandek bo‘ladi. Ammo buni sinchiklab o‘qigan kitobxon ayni shu o‘y-xayollar asarning badiiyatidagi o‘ziga xoslik ekanini anglaydi. Bir o‘qiganda asar mantiqsizdek tuyuladi, hech qanday mazmun, fikr anglashilmagandek bo‘ladi. Bundan chiqadiki, qissada noan’anaviylik ko‘p. Shu bilan bir qatorda asarda insonparvarlik fazilatlari ham aks etgan. Umid ustoz bilan muomalasida kattalarni ulug`laydigan, milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan inson ekanligini anglab olamiz.

Asarda hamma voqeani bitta narsa, ya’ni kuzatish, kuzatuv bog‘lagan. Ustozning nazare’tibordan qolish haqidagi gaplari, Umidning opasiga yomon odamlarning nazari tekkanligi haqidagi gap-so‘zlar, kotiba qizning Umidga bo‘lgan e’tibori, kuzatuvlari va do‘sti Azizning ham fikrlari shunga o‘xshashligi asardagi mohiyat umumiyligini ko‘rsatadi.

- Ota-on – kuzatuvchi, o‘g‘il-qiz – kuzatiluvchi!
- Ko‘chaga chiqli deguncha qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘y – kuzatuvchi, odamlar -kuzatiluvchi!
- Qarindosh-urug‘, yoru-birodar – kuzatuvchi!
- Bozorda pattyachi, nalogchi – nazoratchi, bizga o‘xshash bozorchilar – kuzatiluvchi!
- Ishxonada rahbar – kuzatuvchi, xodimlar- kuzatiluvchi!

<sup>3</sup>H.Karimov. Yangi yo‘nalishdagi romanlar xususiyati. “Sharq yulduzi”. 2009.

Larisa Latipovnalar – kuzatuvchi, boshqa hamma – kuzatiluvchi!<sup>4</sup> Ya’ni asarning “Kuza” deb nomlanishi ham mana shundandir. Asarning shunday nomlanishi bilan bog‘liq yana quyidagicha fikrlar ham bor.“Qissa “Kuza...” deb nomlangan. Dastlab tushunarsizdek, biroz mavhumdek ko‘ringan qissa nomi asar matnini o‘qiganingiz sari o‘z sirlarini ocha boshlaydi. Kitobxon endi “Kuza” so‘zini insonni kuzatish va kuzatilish ma’nosida anglay boshlaydi. Asar oxirlagan sari bu tushunchalar o‘z isbotini topgandek bo‘ladi. Lekin muallif nega “Kuza” so‘zidan so‘ng uch nuqta belgisini ishlatgan. Bu uch nuqta qo‘srimcha biror-bir so‘zmikin? Agar uch nuqta qo‘srimcha bo‘lsa, asar matnidan kelib chiqib, bu qo‘srimchalar fe'lning orttirma nisbatdagi –t, majhul nisbatdagi –il hamda birgalik nisbatdagi –ish qo‘srimchalari bo‘lishi mumkin. Agar uch nuqta so‘z bo‘lganda-chi? Bu so‘zning ma’nosini to‘liq tushunib yetish uchun maxsus lug‘atga qarash zarur. Demak, unda kuza (moq) so‘zining uchta ma’nosni berilgan. Ikkita ma’nosni o‘zaro ko`p ma’noli so‘z, uchinchi ma’nosni esa har ikkala so`zga omonim tarzida izohlangan.

- 1.Tekis qilib kesmoq, qirqib tekislamoq. (Yo`lni, soqolni, mo`ylovni).
  - 2.Daraxt va butalarni manzarali tus berish uchun ortiqcha shox-shabbalarini kesib tekislamoq.
  - 3.Ketmoq, jo`namoq. (Biror marosim, mehmondorchilikdan so`ng)<sup>5</sup>
- Yozuvchining boshqa asarlari kabi ushbu qissasida ham noan`anaviy ruhdagi voqealar mavjuddir. Ustoz bilan uchrashganlarini eslaydi-yu, voqeа undan to`g`ridan to`g`ri Farhod bilan suhbatga ko`chadi. Keyin yana shu voqeа davom etadi. Davom etayotgan bir voqeа ichiga boshqa bir voqeaning kiritilishi yangicha uslub hosil qilgan.
- Vaqt allamahal bo`lib qolganiga qaramay Umid Aziznikiga yetib borganida hovli charog`on va gavjum edi. Chamasi Aziz ham ancha hayallab endigina kirib kelgan chog`i, uni kutaverib toqati toq bo`lgan qarindosh-urug`, yor-birodarlar uni o`rtaga olishgan, biri olib-biri qo`yib chekka-chekkadan savol yog`dirishar. Aziz shunchalik toliqqan ediki, ularning hech biriga yolchitib javob berolmayotgandi.

Umid esa... Opasidagi o`zgarishni ko`rgan ko`zlariga, gapini eshitgan quloqlariga ishonmayotgandi.<sup>6</sup> Yuqorida keltirilgan parchada bo`layotgan bir jarayon orasiga ma’lumot sifatida boshqa voqeа kiritilib o’tilgan. Bu shakl jihatdan o`zgachalik, noan`anaviylik kasb etgan. Shunday bo`lsa ham mazmuni shu yerda bo`layotgan jarayonlarga aloqador emasligini anglab olsa bo`ladi.

“Kuza...” qissasi sujeti noan`anaviy talqindan iborat. Bundagi voqealar bayonida hayot hodisalari jiddiy tahlil etilmaydi, asosiy e’tibor inson ruhiyatiga qaratilgan bo`ladi. Asardagi voqealar mazmuni qahramonlar ruhiyatiga singdirib yuborilgandek tuyuladi.Qissadagi qahramonlar xarakterikasida ularning hayotdagи ko`rinishi aks etadi. Ularning qanchalik tajribali ekanligi bir-biri bilan bo`lgan muloqotda yuzaga chiqadi. Noan`anaviy uslublarni o`zida jamlagan ushbu qissa haqida filologiya fanlari nomzodi Abdulla Ulug`ov quyidagicha fikr bildirgan: “Kuza...” ni o`qigan har bir odam fe'l-atvorimizga singib ketgan, tushovday bizni ushlab turgan, xalqimizning hayot tarziga xos muammolar to`g`risida o`ylanib qoladi. Chunki asarning “Hamma hammani kuzatuv ostida tutishi bir hisobda yaxshi va tabiiy bo`lsa,

<sup>4</sup>X.Do`stmuhamed. Kuza.... “Sharq yulduzi”. 2010. 26-bet.

<sup>5</sup>“Til va adabiyot ta’limi” jurnali

<sup>6</sup>X.Do`stmuhamed. Kuza.... “Sharq yulduzi”. 2010. 32-bet.

ikkinchi hisobda o`zini muttasil o`zgalarning nazari ostida his qilish odamning erkini, ixtiyorini bo`g`adi...”<sup>7</sup>

Kurshid Do`stmuhhammadning ko`pgina asarlarida noan'anaviylik ufurib turadi. Shu jumladan ham, “Kuza...” qissasida ham bunga guvoh bo`ldik. Yozuvchi qissalarida ko`pincha ijtimoiy hayotdagi jarayonlar ta’sirida inson ruhiyatidagi evrilishlar bayon qilinadi. Uning barcha asarlarini o`qigan kitobxon buni bir qarashda ilg`ab olmasa-da, o`ziga qandaydir ma’naviy va hayotiy ozuqa ola oladi.

## REFERENCES

1. X.Do`stmuhammad. Kuza.... “Sharq yulduzi”. 2010.
2. Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari : yangilangan an'analar va postmodernism. G'afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2006.
3. A.Ulug`ov. Qissalarda qalb egasi. Maqola. “Sharq yulduzi”. 2011.
4. A.Nosirov. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo`llanma. Samarqand. 2014.
5. S.Sodiq.Hozirgi o`zbek adabiyoti. “O`zbekiston”. Toshkent. 1992.
6. H.Karimov. Yangi yo`nalishdagi romanlar xususiyati. Maqola. “Sharq yulduzi”. 2009.
7. Maxsudova, S. (2019). Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. *Global ilmiy jarayonda integrtatsion ta'limni rivojlantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy an'anaviy on-line konferensiya materiallari.*
8. Maxsudova, S. (2021). Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarasi. *POLISH SCIENCE JOURNAL*.
9. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA "ZUKKO BOLAJON" KURSLARINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGI. «МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 6 Нөкис—2023. (Maxsudova, S. K. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA "ZUKKO BOLAJON" KURSLARINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGI. 6-сан, 492.)
10. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *Science and innovation*, 2(B11), 540-543.
11. Taniberdiyev, A., & Maxsudova, S. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Modern Science and Research*, 2(12), 466-472.
12. Maxsudova, S. (2023). Priority directions for the formation of the effectiveness of the use of foreign experience in primary grades. " BioGecko" A Journal for New Zealand Herpetology.

<sup>7</sup>A.Ulug`ov. Qissalarda qalb egasi. Maqola. “Sharq yulduzi”. 2011.